



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA FITBEK (FEEDBACK) USULIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGI**

Axmedova Mushtariybonu Mahmudjonovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi, Pedagogika fakulteti

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida fitbek (feedback) usulidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida o'qish savodxonligi tushunchasining pedagogik mohiyati, uni rivojlantirish metodlari hamda fitbek usulining ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tajriba-sinov ishlari olib borilib, fitbek usulidan foydalanish orqali o'quvchilarning o'qish, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari fitbek usuli o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Ish natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, fitbek, feedback, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, ta'lim samaradorligi, o'qish ko'nikmasi, baholash, metodika.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ОБРАТНОЙ
СВЯЗИ (FEEDBACK) НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ
В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

Ахмедова Муштарийбону Махмуджоновна

Студенка 3 курса направление начальное образование

Ташкентский университет прикладных наук



Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические основы использования метода обратной связи (feedback) на уроках читательской грамотности в начальных классах. В ходе исследования проанализированы педагогическая сущность читательской грамотности, методы её формирования, а также роль обратной связи в повышении эффективности образовательного процесса. Проведена опытно-экспериментальная работа с учащимися начальных классов, в результате которой выявлена эффективность использования метода feedback для развития навыков чтения, понимания и анализа текста. Результаты исследования показали, что метод обратной связи является эффективным педагогическим инструментом в развитии читательской грамотности учащихся. Полученные результаты могут быть использованы в практической деятельности учителей начальных классов.

Ключевые слова: читательская грамотность, обратная связь, feedback, начальное образование, педагогическая технология, эффективность обучения, навыки чтения, методика, оценивание.

EFFECTIVENESS OF USING FEEDBACK METHOD IN LITERACY LESSONS IN PRIMARY GRADES

Akhmedova Mushtariybonu Maxmudjonovna

3rd year student of majoring in primary education

University of Tashkent for Applied Sciences

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of using the feedback method in reading literacy lessons in primary school. The study analyzes the pedagogical essence of reading literacy, methods of its development, and the role of feedback in improving the effectiveness of the educational process. Experimental work was conducted with primary school students to determine the effectiveness of feedback in developing reading, comprehension, and analytical skills. The results of the study showed that feedback is an effective pedagogical tool



for improving students' reading literacy. The findings of this research can be used in the professional activities of primary school teachers.

Keywords: *reading literacy, feedback, primary education, pedagogical technology, learning effectiveness, reading skills, assessment, teaching methods.*

Ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tushunish va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qish savodxonligi nafaqat matnni o'qish, balki uni tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [2]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida fitbek (feedback) usuli o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, xatolarini aniqlash va ularni to'g'rilashga yordam beruvchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Fitbek orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot shakllanadi, bu esa o'quvchilarning o'z bilimlariga nisbatan tanqidiy yondashish ko'nikmasini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida fitbek usulidan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning tushunish darajasini yaxshilaydi va o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradi.

O'qish savodxonligi zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U o'quvchilarning nafaqat matnni o'qish, balki uni tushunish, tahlil qilish, mazmunini anglash va undan foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [1]. O'qish savodxonligi boshlang'ich ta'limning asosiy kompetensiyalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi bu o'quvchining quyidagi qobiliyatlarini o'z ichiga oladi:

- matnni to'g'ri, ravon va ongli o'qish;
- matn mazmunini tushunish;
- matndan asosiy fikrni ajratib olish;
- matn asosida xulosa chiqarish;



- matnga nisbatan o‘z munosabatini bildirish [4].

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini shakllantirish o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘qish orqali o‘quvchi yangi bilimlarni egallaydi, dunyoqarashi kengayadi, nutqi rivojlanadi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘qish savodxonligi quyidagi komponentlardan iborat:

- ✓ Texnik o‘qish ko‘nikmasi (to‘g‘ri va ravon o‘qish)
- ✓ Matni tushunish ko‘nikmasi
- ✓ Matni tahlil qilish ko‘nikmasi
- ✓ Matndan foydalanish ko‘nikmasi [5].

Bu komponentlarning har biri o‘quvchilarning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avval o‘quvchilar harflarni o‘rganadilar, so‘ngra so‘zlarni o‘qishni, keyinchalik esa gap va matnlarni o‘qishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchilarning matni tushunishiga alohida e‘tibor qaratishi lozim. O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning umumiy ta‘lim natijalariga bevosita ta‘sir qiladi [3]. Shu tariqa o‘qishni yaxshi bilgan o‘quvchi boshqa fanlarni ham oson o‘zlashtiradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish o‘qituvchidan maxsus metodik yondashuvni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metod va usullardan foydalanishi zarur. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda quyidagi metodlar muhim hisoblanadi:

1. *Og‘zaki o‘qish metodi.* Bu metod orqali o‘quvchilar matni ovoz chiqarib o‘qiydilar. Bu ularning: talaffuzini yaxshilaydi; o‘qish tezligini oshiradi; o‘qishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

2. *Ichki o‘qish metodi.* Bu metod o‘quvchilarning matni ichida o‘qib tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu metod orqali o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmasi shakllanadi.



3. *Savol-javob metodi.* Bu metod o'quvchilarning matnni tushunganlik darajasini aniqlashga yordam beradi. O'qituvchi matn asosida savollar beradi va o'quvchilar javob beradilar.

4. *Tahlil metodi.* Bu metod orqali o'quvchilar matn mazmunini tahlil qiladilar, asosiy fikrni aniqlaydilar va xulosa chiqaradilar.

5. *Interaktiv metodlar.* Interaktiv metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Masalan: klaster metodi; aqliy hujum metodi; rol o'ynash metodi. Bu metodlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda o'qituvchining roli juda muhim. O'qituvchi o'quvchilarga yordam berishi, ularni rag'batlantirishi va to'g'ri yo'naltirishi zarur. Masalan, Fitbek (feedback) — bu o'quvchining o'quv faoliyati natijalari haqida unga beriladigan axborot bo'lib, u o'quvchining bilimni yaxshilashga xizmat qiladi. Fitbek o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: o'z xatolarini tushunish; bilim darajasini baholash; o'z ustida ishlash; bilimlarini yaxshilash. Fitbek samarali bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak: o'z vaqtida berilishi; tushunarli bo'lishi; rag'batlantiruvchi bo'lishi; aniq bo'lishi.

Fitbek quyidagi turlarga bo'linadi:

- *Og'zaki fitbek.* Bu o'qituvchining og'zaki fikr bildirishidir. Masalan: “Sen matnni juda yaxshi o'qiding”.

- *Yozma fitbek.* Bu yozma shaklda beriladi. Masalan: “Matnni yaxshi tushunding, lekin asosiy fikrni aniqlash ustida yana ishlash kerak”.

- *Individual fitbek.* Bu har bir o'quvchiga alohida beriladi.

- *Guruhli fitbek.* Bu butun sinfga beriladi.

Shu tariqa, Fitbek o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Fitbek boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z xatolarini mustaqil aniqlashga hali to'liq qodir emaslar. Fitbek orqali o'quvchilar:



- o‘z xatolarini tushunadilar;
- o‘z bilimlarini yaxshilaydilar;
- o‘qishga qiziqishlari ortadi;
- o‘ziga ishonch hosil qiladilar.

Fitbek o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi, shuningdek o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlaydi va ularni rivojlantirish yo‘llarini belgilaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish ta‘limning muhim vazifalaridan biridir. O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Fitbek usuli o‘quvchilarning bilimini yaxshilash, xatolarini tuzatish va motivatsiyasini oshirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishda fitbek (feedback) usulidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fitbek o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ularning xatolarini tuzatish va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Fitbek usulini qo‘llashda o‘qituvchi quyidagi metodik tamoyillarga amal qilishi zarur: tizimlilik; izchillik; individual yondashuv; rag‘batlantirish; tushunarlilik. Fitbek o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanishi mumkin:

1. *Dars boshida fitbek.* Dars boshida o‘qituvchi o‘quvchilarning avvalgi bilimlarini aniqlaydi. Masalan: savol-javob orqali; tezkor test orqali; og‘zaki so‘rov orqali. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi.

2. *Dars davomida fitbek.* Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini kuzatadi va ularning ishiga izoh beradi. Masalan: o‘qish jarayonida xatolarni tuzatish; to‘g‘ri o‘qigan o‘quvchini rag‘batlantirish; matnni tushuntirishda yordam berish.

3. *Dars oxirida fitbek.* Dars oxirida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimini umumlashtiradi va baholaydi. Masalan: umumiy xulosalar chiqarish; o‘quvchilarning faoliyatini baholash; tavsiyalar berish.



Shu tariqa, Fitbek orqali o'quvchilar o'z bilim darajasini tushunadilar va uni yaxshilashga harakat qiladilar. Fitbek usulidan foydalanishda turli shakl va vositalardan foydalanish mumkin.

- *Og'zaki fitbek.* Bu eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchining faoliyatiga og'zaki izoh beradi. Masalan: "Sen juda yaxshi o'qiding"; "Matnni tushunishing yaxshi, lekin yana e'tiborli bo'lish kerak". Bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

- *Yozma fitbek.* Bu o'quvchilarning yozma ishlarini baholashda qo'llaniladi. Masalan: daftoriga izoh yozish; baholash belgilaridan foydalanish.

- *O'zaro fitbek.* Bu metodda o'quvchilar bir-birining ishini baholaydilar. Bu metod quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi: tahlil qilish; baholash; fikr bildirish.

- *O'z-o'zini baholash.* Bu metod orqali o'quvchilar o'z ishlarini baholaydilar. Masalan: "Men matnni tushundimmi?"; "Men to'g'ri o'qidimmi?". Bu metod o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantiradi.

Fitbek usulining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba Toshkent viloyati Yangiyo'l shahridagi 10-sonli maktabda 2-sinf o'quvchilari orasida o'tkazildi. Tajribada 20 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi:

➔ *1-bosqich:* Dastlabki aniqlash bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi aniqlanadi. Natijalar: yuqori daraja – 5 nafar o'quvchi; o'rta daraja – 8 nafar o'quvchi; past daraja – 7 nafar o'quvchi.

➔ *2-bosqich:* Tajriba bosqichi. Bu bosqichda fitbek usulidan muntazam foydalanildi. Quyidagi metodlardan foydalanildi: og'zaki fitbek; yozma fitbek; rag'batlantirish; savol-javob.

➔ *3-bosqich:* Yakuniy bosqich. Bu bosqichda o'quvchilarning bilim darajasi qayta baholandi. Natijalar: yuqori daraja – 9 nafar o'quvchi; o'rta daraja – 7 nafar o'quvchi; past daraja – 4 nafar o'quvchi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, fitbek usuli o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.



1-jadval. O'qish savodxonligi darsida fitbek usulidan foydalanishga oid dars ishlanma namunasi

SINF:	2-SINF
Fan:	O'qish savodxonligi
Mavzu:	Matnni o'qish va tushunish
Dars maqsadi:	o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish; matnni tushunish qobiliyatini rivojlantirish; fitbek orqali bilimlarini mustahkamlash.
Dars jarayoni:	Tashkiliy qism O'tgan mavzuni takrorlash Yangi mavzuni tushuntirish Matnni o'qish Fitbek berish Baholash Xulosa
<i>Fitbek jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tavsiyalar beradi va ularni rag'batlantiradi</i>	

Shunday qilib, Fitbek usuli boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Fitbek orqali o'quvchilar o'z xatolarini tushunadilar va ularni tuzatishga harakat qiladilar. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, fitbek usulidan foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini sezilarli darajada oshiradi. Fitbek usuli o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida fitbek (feedback) usulidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida o'qish savodxonligining pedagogik mohiyati, uning tarkibiy qismlari, rivojlantirish metodlari hamda fitbek usulining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish savodxonligi boshlang'ich ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning intellektual rivojlanishida, mustaqil fikrlashida va bilimlarni o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi. O'qish savodxonligi o'quvchilarning nafaqat matnni o'qish, balki uni tushunish, tahlil qilish va undan amaliy foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Fitbek usulining nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, mazkur usul o'quvchilarning bilimni baholash, xatolarini aniqlash va tuzatish, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Fitbek orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali pedagogik hamkorlik shakllanadi, bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari fitbek usulidan foydalanish o'quvchilarning o'qish tezligi, matnni tushunish darajasi va tahlil qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Fitbek asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirdi, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

- O'qish savodxonligi boshlang'ich ta'limning asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi va o'quvchilarning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.
- Fitbek usuli o'quvchilarning bilimni mustahkamlash, xatolarini tuzatish va o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.
- O'qish savodxonligi darslarida fitbek usulidan muntazam foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini yaxshilaydi.
- Fitbek usuli o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.



- Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘qish savodxonligi darslarida fitbek usulidan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanishlari zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishda fitbek usulidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarning bilim darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.
2. Inatova N. A. (2025). Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tishning innovatsion usullari. Экономика и социум, (6-2 (133)), 297-299.
- Musayeva Sh.H. (2025). Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish. Pedagogikada ilmiy izlanishlar, 3 (1), 13-17.
4. Формы обратной связи на уроках в начальной школе//<https://nsportal.ru>
5. Что такое фидбэк — виды, примеры и как правильно давать <https://kaiten.ru/blog/feedback-and-result>